e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/rgjvzh24

OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHI: FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TAHLIL

Isaqov Ilyosjon Islomjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti, stajyor-o‘qituvchi, (PhD).
e-mail: ilyosbek.islomovich@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-8440-8723

Annotatsiya.
Maqolada ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola shaxsining shakllanishi falsafiy antropologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Deprivatsiya sharoitida bog‘lanish, ko‘zgudek aks ettirish, e’tirof etish va narrativ o‘zlikni shakllantirish mexanizmlarining buzilishi hamda ularni tiklash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, «deprivatsiyalangan subyektivlik» tushunchasi taklif etilib, oilaviy tipdagi muqobil g‘amxo‘rlikning falsafiy asoslari ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: falsafiy antropologiya, identifikatsiya, ijtimoiylashuv, shaxs, deprivatsiya, o‘zlikni anglash, e’tirof, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЁНКА, ОСТАВШЕГОСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ: ФИЛОСОФСКО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Исаков Ильёсжон Исломжон угли
Кокандский государственный университет, преподаватель-стажёр, (PhD).

Аннотация.
В статье рассматривается формирование личности ребёнка, оставшегося без попечения родителей, с позиций философской антропологии. Анализируются нарушения механизмов привязанности, зеркального отражения, признания и формирования нарративной идентичности в условиях депривации, а также возможности их восстановления. Предлагается понятие «депривированная субъективность» и обосновываются философские основы альтернативных форм заботы о детях, основанных на семейном воспитании.

Ключевые слова: философская антропология, идентификация, социализация, личность, депривация, самосознание, признание, ребёнок, оставшийся без попечения родителей.

PERSONALITY DEVELOPMENT OF CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE: A PHILOSOPHICAL-ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS

Isaqov Ilyosjon Islomjon o‘g‘li
Kokand State University, Trainee Lecturer, (PhD).

Abstract.
This article examines the development of the personality of children deprived of parental care from the perspective of philosophical anthropology. It explores the disruption of attachment, mirroring, recognition, and narrative identity formation mechanisms under conditions of deprivation, as well as the possibilities for their restoration. The study introduces the concept of “deprived subjectivity” and proposes philosophical foundations for alternative family-based care arrangements.

Keywords: philosophical anthropology, identification, socialization, personality, deprivation, self-awareness, recognition, children deprived of parental care.

Kirish. Inson shaxsi tayyor holda tug‘ilmaydi: u muloqot, munosabat va madaniyat ichida, boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sirda shakllanadi. Bu jarayonning eng dastlabki va hal qiluvchi bosqichi oila bag‘rida kechadi. Oila bolaga nafaqat jismoniy parvarish, balki dunyoga ishonch, o‘z qadrini his etish, til, qadriyatlar va hayotiy mazmun beradi. Shu sababli ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar muammosi faqat ijtimoiy yoki huquqiy masala emas, balki inson mohiyatiga oid chuqur falsafiy-antropologik muammodir.

Zamonaviy dunyoda yetimlik va ijtimoiy yetimlik hodisalari turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Ota-onaning vafoti bilan bir qatorda, ularning ota-onalik huquqidan mahrum etilishi, bolani tashlab ketishi, mehnat migratsiyasi, oilaviy ajralishlar va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida ota-onasi tirik bo‘lsa-da, ularning g‘amxo‘rligidan bebahra qolayotgan bolalar soni kam emas. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (1989) bolaning to‘laqonli va uyg‘un kamol topishi uchun oilaviy muhitda, baxt, muhabbat va o‘zaro tushunish sharoitida o‘sishi zarurligini e’tirof etadi [1; preambula]. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2009-yilda qabul qilingan Bolalarni muqobil parvarish qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar ham institutsional tarbiyani oxirgi chora sifatida ko‘rib, oilaviy tipdagi shakllarni ustuvor deb belgilaydi [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham bu yo‘nalishda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [3] va bolalarni oilaviy muhitga qaytarish, patronat, vasiylik va farzandlikka olish institutlarini rivojlantirishga qaratilgan normativ hujjatlar davlat siyosatining insonparvarlik yo‘nalishini ko‘rsatadi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Biroq huquqiy va tashkiliy choralar samaradorligi ularning ortida turgan inson haqidagi tasavvurga bog‘liq. Agar bolaga faqat moddiy ta’minot obyekti sifatida qaralsa, uning shaxs sifatida shakllanishidagi chuqur ehtiyojlar — ishonch, mansublik, e’tirof va o‘z hayot hikoyasiga ega bo‘lish ehtiyojlari e’tibordan chetda qoladi.

Psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada deprivatsiya muammosi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning falsafiy-antropologik jihatlari, ya’ni oilaviy muhitning yo‘qligi inson bo‘lish jarayonining o‘ziga qanday ta’sir ko‘rsatishi masalasi yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan. Mavjud tadqiqotlar ko‘proq deprivatsiya oqibatlarini tavsiflash bilan cheklanadi, ularning ortidagi umuminsoniy antropologik mexanizmlar esa ochiq qoladi.

Tadqiqotning maqsadi — oilaviy muhit yo‘qligi sharoitida shaxs identifikatsiyasi, o‘zlikni anglash va ijtimoiylashuv jarayonlarining antropologik mexanizmlarini ochib berish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1. Falsafiy antropologiyada insonning “ochiqligi” va oilaning shaxs shakllanishidagi o‘rni haqidagi qarashlarni tahlil qilish.
2. Shaxs identifikatsiyasi va o‘zlikni anglashning munosabatlarga asoslangan tabiatini asoslash.
3. Deprivatsiya sharoitida buziladigan asosiy antropologik mexanizmlarni aniqlash.
4. Muqobil g‘amxo‘rlik amaliyoti uchun falsafiy-antropologik xulosalar chiqarish.

Ilmiy yangilik shundan iboratki, maqolada ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola shaxsining shakllanishi bog‘lanish, ko‘zgu-aks ettirish, e’tirof va hikoyaviy o‘zlik mexanizmlaridan iborat yaxlit antropologik model doirasida talqin qilinadi hamda “deprivatsiyalangan subyektivlik” tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida taklif etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muammoni o‘rganishda bir necha ilmiy an’ana kesishadi. Birinchisi — XX asr falsafiy antropologiyasi. M. Sheler insonni hayvondan farqlovchi xususiyat sifatida “ruh”ni, ya’ni o‘z muhitidan ajralib, dunyoga “ochiq” bo‘lish qobiliyatini ko‘rsatadi [4]. H. Plesner insonning “ekssentrik pozitsiyasi” haqidagi g‘oyani ilgari suradi: inson o‘z tanasida yashaydi va bir vaqtning o‘zida unga tashqaridan qaray oladi, shu bois u o‘z hayotini “yashash” bilan birga uni “qurishi” ham kerak [5]. A. Gelen esa insonni instinktlar bilan yetarli ta’minlanmagan “kamchilikli mavjudot” (Mangelwesen) deb ta’riflaydi; bu kamchilik institutlar — madaniyat, odat va me’yorlar orqali to‘ldiriladi [6]. Ushbu yondashuvlarning umumiy xulosasi shuki, inson o‘z mohiyatini madaniy-ijtimoiy muhit orqali egallaydi va bu muhitning birinchi, eng yaqin shakli oiladir.

Ikkinchi an’ana — shaxs va o‘zlikning ijtimoiy kelib chiqishi haqidagi nazariyalar. J. G. Mid “Men” (self) boshqalarning munosabatini o‘zlashtirish, “muhim boshqalar” va keyinchalik “umumlashgan boshqa” nuqtayi nazarini qabul qilish orqali vujudga kelishini ko‘rsatgan [7]. E. Erikson shaxs rivojlanishini bosqichma-bosqich kechadigan psixososial jarayon sifatida talqin qilib, uning poydevori go‘daklikdagi “tayanch ishonch” (basic trust) ekanini ta’kidlaydi [8]. P. Berger va T. Lukman birlamchi ijtimoiylashuvda bola dunyoni o‘ziga hissiy jihatdan yaqin bo‘lgan shaxslar orqali “yagona mumkin bo‘lgan dunyo” sifatida o‘zlashtirishini ko‘rsatgan [9]. A. Honnet esa muhabbat, huquq va ijtimoiy qadrlash shakllaridagi e’tirof shaxsning o‘ziga ishonchi, o‘zini hurmat qilishi va o‘z qadrini his etishi uchun zarur shart ekanini asoslagan [10].

Uchinchi an’ana — deprivatsiyaning empirik tadqiqotlari. R. Shpits muassasalardagi go‘daklarda kuzatilgan “gospitalizm” holatini tasvirlagan [11]. J. Boulbi bog‘lanish nazariyasini yaratib, bola va unga g‘amxo‘rlik qiluvchi kattalar o‘rtasidagi barqaror hissiy aloqa shaxs rivojlanishining asosiy omili ekanini ko‘rsatgan [12]. J. Langmeyer va Z. Mateychek psixik deprivatsiyaning turlarini (sensor, kognitiv, emotsional, ijtimoiy) tasniflagan [13]. Ruminiyadagi Buxarest erta aralashuv loyihasi [14] va Angliyaga farzandlikka olingan rumin bolalari ustidagi tadqiqotlar [15] erta yoshda oilaviy muhitga o‘tkazilgan bolalarda rivojlanishning sezilarli darajada tiklanishini, uzoq muddatli institutsional tarbiyada esa barqaror qiyinchiliklar saqlanib qolishini ko‘rsatgan.

Sharq mutafakkirlari merosida ham inson kamolotining jamoaviy va tarbiyaviy tabiati alohida ta’kidlangan. Abu Nasr Forobiy insonning o‘z kamolotiga yolg‘iz holda erisha olmasligi, buning uchun o‘zaro yordam va hamjamiyat zarurligini ko‘rsatgan [16]. Bu g‘oya zamonaviy falsafiy antropologiyaning munosabatlar haqidagi xulosalari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda falsafiy-antropologik, fenomenologik-germenevtik, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Falsafiy-antropologik yondashuv insonni biologik, ijtimoiy va ma’naviy o‘lchovlar birligida ko‘rish imkonini berdi. Germenevtik usul orqali deprivatsiya tajribasining ma’no qatlamlari, ayniqsa, P. Rikyorning hikoyaviy o‘zlik konsepsiyasi [17] asosida talqin qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida institutsional va oilaviy tipdagi tarbiya modellari antropologik mezonlar asosida solishtirildi. Empirik psixologik tadqiqotlar natijalari falsafiy umumlashmalarni tasdiqlovchi dalil sifatida jalb qilindi.

MUHOKAMA

1. Inson “ochiqligi” va oila — shaxsning “ikkinchi tug‘ilishi” makoni

Falsafiy antropologiyaning asosiy xulosalaridan biri shundaki, inson tug‘ilganda o‘z turmush tarzi bilan qat’iy belgilanmagan bo‘ladi. Hayvon o‘z muhitiga instinktlar orqali “bog‘langan” bo‘lsa, inson dunyoga ochiq, ammo shu ochiqlik sababli himoyasiz hamdir. A. Gelen ta’biri bilan aytganda, inson o‘z biologik kamchiligini madaniyat va institutlar orqali to‘ldiradi [6]. Bolaning ilk yillarida bu vazifani, avvalo, oila bajaradi: u bola uchun tabiat va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik, dunyoni tartibga solingan, tushunarli va xavfsiz makon sifatida taqdim etuvchi ilk institutdir.

Shu ma’noda oilani shaxsning “ikkinchi tug‘ilishi” makoni deb atash mumkin. Birinchi, biologik tug‘ilish bolani hayotga olib kirsa, ikkinchi, ijtimoiy-madaniy tug‘ilish uni inson qiladi. Bu jarayon til, me’yorlar, qadriyatlar va eng muhimi — o‘z qadrini his etish orqali amalga oshadi. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola uchun ana shu “ikkinchi tug‘ilish” jarayoni uzilib qoladi yoki tasodifiy, parchalangan va beqaror sharoitda kechadi. Muammoning antropologik mohiyati ham aynan shunda: deprivatsiya bolaning nimanidir “olmasligi” emas, balki uning inson sifatida o‘zini qurish

jarayonining asosiy tayanchlaridan mahrum bo‘lishidir.

2. Bog‘lanish mexanizmi: dunyoga ishonchning ontologik asosi

Shaxs shakllanishining birinchi antropologik mexanizmi — bog‘lanish (attachment). J. Boulbi nazariyasiga ko‘ra, go‘dak hayotining dastlabki yillarida unga doimiy g‘amxo‘rlik qiluvchi kattalar bilan barqaror hissiy aloqa o‘rnatadi va bu aloqa keyinchalik barcha munosabatlarning “ichki ishchi modeli”ga aylanadi [12]. E. Erikson bu bosqichda “tayanch ishonch” yoki “ishonchsizlik” shakllanishini ko‘rsatadi [8].

Falsafiy nuqtayi nazardan bog‘lanish faqat psixologik hodisa emas, balki inson borlig‘ining ontologik asosidir. Bola o‘zini qabul qiluvchi, uning ehtiyojlariga javob beruvchi boshqa inson orqali dunyoning “xavfsiz” ekanini, o‘zining esa dunyoda “o‘rni bor” ekanini his qiladi. Muassasa sharoitida, hatto moddiy ta’minot yetarli bo‘lsa ham, tarbiyachilarning almashib turishi, guruhlarning kattaligi va munosabatlarning rasmiy xususiyati bu mexanizmning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiladi. R. Shpitsning gospitalizm haqidagi kuzatuvlari [11] va Buxarest loyihasi natijalari [14] hissiy aloqa yo‘qligi bolaning jismoniy, kognitiv va emotsional rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

3. Ko‘zgu-aks ettirish mexanizmi: “Men”ning boshqalar orqali paydo bo‘lishi

Ikkinchi mexanizm — ko‘zgu-aks ettirish (mirroring). J. G. Mid ko‘rsatganidek, bola o‘zini avval boshqalarning unga bo‘lgan munosabati orqali taniydi: “Men” boshqalarning nigohi va reaksiyalarini o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi [7]. D. Vinnikott onaning yuzini bola o‘zini ko‘radigan birinchi “ko‘zgu” deb ataydi [18]: bola onaning yuzida o‘z holatining aksini ko‘rib, o‘z his-tuyg‘ularini tanishni o‘rganadi.

Oilaviy muhitda bu ko‘zgu shaxsiy, izchil va mehrli bo‘ladi. Muassasa sharoitida esa bola ko‘pincha “umumlashgan”, shaxssiz nigoh ostida qoladi: u alohida bir shaxs sifatida emas, guruhning bir a’zosi sifatida ko‘riladi. Natijada “Men” obrazi noaniq, beqaror yoki tashqi baholarga haddan ortiq bog‘liq holda shakllanishi mumkin. Bu holatni “ko‘zgusiz o‘zlik” deb tavsiflash mumkin: bola o‘zi haqidagi bilimni izchil manbadan emas, tasodifiy va ko‘pincha qarama-qarshi signallardan to‘playdi.

4. E’tirof mexanizmi: o‘z qadrini his etishning ijtimoiy shartlari

Uchinchi mexanizm — e’tirof (recognition). A. Honnet e’tirofning uch shaklini ajratadi: muhabbat (o‘ziga ishonchni shakllantiradi), huquqiy e’tirof (o‘zini hurmat qilishni ta’minlaydi) va ijtimoiy qadrlash (o‘z qadrini his etishga olib keladi) [10]. Bu shakllar ketma-ket va bir-birini taqozo etuvchi tarzda shakllanadi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola, birinchi navbatda, e’tirofning eng dastlabki shakli — shartsiz muhabbatdan mahrum bo‘ladi. Huquqiy e’tirof davlat tomonidan ma’lum darajada ta’minlansa-da, u muhabbat o‘rnini bosa olmaydi. Bundan tashqari, “yetim”, “mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi” kabi ijtimoiy yorliqlar bolaning ijtimoiy qadrlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, stigmatizatsiyaga olib kelishi mumkin. Natijada e’tirofning buzilishi o‘ziga past baho berish, ishonchsizlik yoki aksincha, himoyaviy tajovuzkorlik shaklida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ijtimoiy himoya tizimi bolani faqat ta’minlash emas, balki uni noyob shaxs sifatida e’tirof etish vazifasini ham bajarishi lozim.

5. Hikoyaviy o‘zlik mexanizmi: “Men kimman?” savoliga javob

To‘rtinchi mexanizm — hikoyaviy o‘zlik (narrative identity). P. Rikyor shaxs o‘zligi o‘z hayotini izchil hikoya sifatida anglash orqali shakllanishini ko‘rsatadi [17]. Ch. Teylor ham o‘zlikni insonning “Men qayerdan kelganman va qayerga intilaman?” degan savollarga beradigan javobi bilan bog‘laydi [19]. Oilada bola o‘z hikoyasini avlodlar zanjiri, oilaviy rivoyatlar, fotosuratlar va an’analar orqali egallaydi: u kimning farzandi, qaysi xonadon vakili ekanini biladi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola uchun bu hikoya ko‘pincha uzilgan, noma’lum yoki og‘riqli bo‘ladi. Kelib chiqishi haqidagi bilimning yo‘qligi yoki uning yashirilishi o‘smirlik davrida, E. Erikson ta’biri bilan aytganda, “identiklik inqirozi”ni [8] yanada keskinlashtiradi. Bola o‘z o‘tmishini anglay olmasa, kelajagini loyihalash ham qiyinlashadi. Shu bois “hayot kitobi” (life story book) kabi amaliyotlar, bolaga o‘z kelib chiqishi haqida yoshiga mos tarzda haqqoniy ma’lumot berish, qarindoshlar bilan aloqani saqlash hikoyaviy o‘zlikni tiklashning muhim vositalaridir.

NATIJALAR

1. Mexanizmlarning qiyosiy tavsifi

Muhokama qilingan mexanizmlar alohida emas, bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Ularning oilaviy muhitdagi vazifasi, deprivatsiya sharoitidagi buzilishi va tiklash yo‘llari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Shaxs shakllanishining antropologik mexanizmlari va deprivatsiya

Mexanizm	Oilaviy muhitdagi vazifasi	Deprivatsiya sharoitidagi buzilishi	Tiklash yo‘llari
Bog‘lanish (J. Boulbi, E. Erikson)	Dunyoga tayanch ishonch, xavfsizlik hissi	Ishonchsizlik, yuzaki yoki tartibsiz bog‘lanish	Doimiy g‘amxo‘r shaxs, kichik oilaviy guruhlar, patronat
Ko‘zgu-aks ettirish (J. G. Mid, D. Vinnikott)	Izchil va ijobiy “Men” obrazi	Noaniq, beqaror o‘zlik; tashqi baholarga qaramlik	Shaxsga yo‘naltirilgan muloqot, murabbiylik (mentorlik)
E’tirof (A. Honnet)	O‘ziga ishonch, o‘zini hurmat qilish, o‘z qadrini his etish	O‘ziga past baho, stigmatizatsiya, himoyaviy tajovuz	Stigmani bartaraf etish, bolaning ovozini eshitish, yutuqlarini e’tirof etish

ISSN 3060-5059 (Online)

Mexanizm	Oilaviy muhitdagi vazifasi	Deprivatsiya sharoitidagi buzilishi	Tiklash yo‘llari
Hikoyaviy o‘zlik (P. Rikyor, Ch. Teylor)	Avlodlar zanjiridagi o‘rnini anglash, kelajakni loyihalash	Uzilgan hayot hikoyasi, identiklik inqirozi	“Hayot kitobi”, kelib chiqish haqida haqqoniy ma’lumot, qarindoshlar bilan aloqa

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘rtta mexanizmning barchasi oilaviy muhitda tabiiy ravishda ta’minlanadi, deprivatsiya sharoitida esa ularning har biri o‘ziga xos tarzda buziladi va maxsus tiklash choralarini talab qiladi.

2. “Deprivatsiyalangan subyektivlik” tushunchasi

Tahlil natijalari asosida “deprivatsiyalangan subyektivlik” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Bu tushuncha deganda shaxsning o‘zini anglash, boshqalar bilan munosabatga kirishish va o‘z hayotini mazmunli loyihalash qobiliyatining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy antropologik tayanchlar — barqaror bog‘lanish, shaxsiy ko‘zgu, shartsiz e’tirof va izchil hayot hikoyasi yetishmovchiligi sharoitida tarkib topgan holat tushuniladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, deprivatsiyalangan subyektivlik “nuqsonli shaxs” degani emas. Plesnerning ekssentrik pozitsiya haqidagi g‘oyasi [5] insonning o‘z holatiga tashqaridan qarab, uni qayta qurish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi. M. Rutter va hamkorlarining tadqiqotlari [15] ham erta yoshda oilaviy muhitga o‘tkazilgan bolalarda rivojlanishning katta qismi tiklanishini isbotlagan. Demak, deprivatsiya taqdir emas, balki o‘zgartirish mumkin bo‘lgan sharoitdir. Insonning ochiqligi uni zaif qilsa, ayni shu ochiqlik uning tiklanish manbai hamdir. L. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi [20] va U. Bronfenbrennerning ekologik modeli [21] bolani o‘rab turgan munosabatlar tizimi o‘zgarganda uning rivojlanish trayektoriyasi ham o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Bundan muhim amaliy xulosa kelib chiqadi: ijtimoiy himoya siyosatining markazida bola ehtiyojlarining moddiy jihati emas, balki uning munosabatlarga bo‘lgan antropologik ehtiyoji turishi kerak. Institutsional tarbiyadan oilaviy tipdagi muqobil g‘amxo‘rlikka (farzandlikka olish, vasiylik, patronat, oilaviy bolalar uylari) o‘tish shu nuqtayi nazardan nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki falsafiy-antropologik zaruratdir.

XULOSA

O‘tkazilgan falsafiy-antropologik tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

1. Inson biologik jihatdan to‘liq belgilanmagan, dunyoga “ochiq” mavjudot bo‘lgani sababli uning shaxs sifatida shakllanishi madaniy-ijtimoiy muhitga, birinchi navbatda, oilaga bog‘liq. Oila bolaning “ikkinchi”, ijtimoiy-madaniy tug‘ilishi kechadigan dastlabki makondir.

2. Shaxs identifikatsiyasi, o‘zlikni anglash va ijtimoiylashuv to‘rtta o‘zaro bog‘liq antropologik mexanizm — bog‘lanish, ko‘zgu-aks ettirish, e’tirof va hikoyaviy o‘zlik orqali amalga oshadi. Oilaviy muhitning yo‘qligi ushbu mexanizmlarning barchasiga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Deprivatsiya sharoitida “deprivatsiyalangan subyektivlik” shakllanadi. U ishonchsizlik, beqaror “Men” obrazi, o‘ziga past baho berish va uzilgan hayot hikoyasi bilan tavsiflanadi. Biroq bu holat qaytarib bo‘lmaydigan taqdir emas: insonning ochiqligi va ekssentrik pozitsiyasi uning tiklanish imkoniyatini ta’minlaydi.

4. Ijtimoiy himoya tizimi bolaga faqat moddiy ta’minot obyekti sifatida emas, balki munosabatlarga muhtoj noyob shaxs sifatida yondashishi lozim. Shu bois institutsional tarbiyadan oilaviy tipdagi muqobil g‘amxo‘rlikka o‘tish falsafiy-antropologik zarurat sifatida asoslanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

– muqobil g‘amxo‘rlik tizimida bola bilan doimiy aloqada bo‘lgan g‘amxo‘r shaxsni ta’minlash va tarbiyachilar almashinuvini kamaytirish;

– bolaning hayot hikoyasini hujjatlashtirish (“hayot kitobi”) va uning kelib chiqishi haqida yoshiga mos haqqoniy ma’lumot berish amaliyotini joriy etish;

– jamoatchilik ongida “yetim” yorlig‘i bilan bog‘liq stigmani bartaraf etishga qaratilgan ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

– vasiylar, patronat tarbiyachilar va ijtimoiy xodimlarni tayyorlash dasturlariga bolalar psixologiyasi bilan birga falsafiy antropologiya asoslarini kiritish;

– muassasani tark etayotgan yoshlar uchun murabbiylik (mentorlik) va ijtimoiy hamrohlik tizimini rivojlantirish.

Kelgusi tadqiqotlarda deprivatsiyalangan subyektivlikning milliy-madaniy xususiyatlarini, xususan, o‘zbek oilasi va mahalla institutining bola shaxsini shakllantirishdagi o‘rnini empirik materiallar asosida o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Convention on the Rights of the Child: Adopted by UN General Assembly Resolution 44/25 of 20 November 1989 [Elektron resurs]. – URL: https://www.unicef.org/child-rights-convention/convention-text.

2. Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly Resolution A/RES/64/142 of 24 February 2010 [Elektron resurs]. – URL: https://digitallibrary.un.org/record/673583.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-son «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/1297315.

4. Scheler M. Die Stellung des Menschen im Kosmos. – Darmstadt: Reichl, 1928.

5. Plessner H. Die Stufen des Organischen und der Mensch: Einleitung in die philosophische Anthropologie. – Berlin; Leipzig: de Gruyter, 1928.

ISSN 3060-5059 (Online)

6. Gehlen A. Der Mensch: Seine Natur und seine Stellung in der Welt. – Berlin: Junker und Dünnhaupt, 1940.

7. Mead G. H. Mind, Self, and Society. – Chicago: University of Chicago Press, 1934. – DOI: https://doi.org/10.7208/chicago/9780226516608.001.0001.

8. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton, 1968.

9. Berger P. L., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. – Garden City, NY: Doubleday, 1966.

10. Honneth A. The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts. – Cambridge: Polity Press, 1995.

11. Spitz R. A. Hospitalism: An Inquiry into the Genesis of Psychiatric Conditions in Early Childhood // The Psychoanalytic Study of the Child. – 1945. – Vol. 1. – P. 53–74. – URL: https://pep-web.org/browse/document/psc.001.0053a.

12. Bowlby J. Attachment and Loss. – Vol. 1: Attachment. – London: Hogarth Press, 1969.

13. Лангмейер Й., Матейчек З. Психическая депривация в детском возрасте. – Прага: Авиценум, 1984.

14. Nelson C. A., Fox N. A., Zeanah C. H. Romania's Abandoned Children: Deprivation, Brain Development, and the Struggle for Recovery. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014.

15. Rutter M., the English and Romanian Adoptees (ERA) Study Team. Developmental Catch-Up, and Deficit, Following Adoption After Severe Global Early Privation // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 1998. – Vol. 39, № 4. – P. 465–476. – DOI: https://doi.org/10.1111/1469-7610.00343.

16. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – URL: https://dilib.tsuos.uz/resources/01KD5DKX2CKPQ97E6HDZ2EY0KT.

17. Ricoeur P. Oneself as Another. – Chicago: University of Chicago Press, 1992.

18. Winnicott D. W. Playing and Reality. – London: Tavistock Publications, 1971.

19. Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – URL: https://books.google.com/books/about/Sources_of_the_Self.html?id=qoG8asWZRGoC.

20. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – URL: https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674576292.

21. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – URL: https://search.worldcat.org/title/956656424.